



IFTIXOR



TEZROQ, BALANDROQ, KUCHLIROQ

O‘ZBEKISTON YOSHLARI SPORTIMIZ TARIXIDA  
YANGI SAHIFA OCHDIXanchjou shahrida (Xitoy) bo‘lib o‘tgan XIX yozgi Osiyo o‘yinlarida  
muvaffaqiyatli ishtirok etgan sportchilarimiz kecha yurtimizga qaytib keldi. Toshkent xalqaro aeroportida  
sport delegatsiyamiz a‘zolari tantanali kutib olindi.

Marosimda davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, sportchilarning ota-onalari va yaqinlari, jurnalistlar jam bo‘ldi.

Prezidentimizning sport delegatsiyamiz a‘zolariga yo‘llagan tabrigini O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Abdulla Aripov o‘qib eshittirdi.

So‘zga chiqqanlar O‘zbekiston sporti tarixida yangi sahifa ochgan XIX yozgi Osiyo o‘yinlaridagi muzaffariyat bilan muborakbod etdi. Jumladan, Osiyo o‘yinlari chempioni Bahodir Jalolov, Sharifa Davronova va murabbiylar yurtimizda yosh avlodning har tomonlama yetuk inson bo‘lib ulg‘ayishi, sport bilan muntazam shug‘ullanishi, iste‘dod va salohiyatini namoyon etishi uchun yaratilgan shart-sharoitlar uchun samimiy minnatdorlik bildirdi. Kelgusida bundan-da yuksak g‘alabalarni qo‘lga kiritishga va‘da berishdi.

— XIX yozgi Osiyo o‘yinlarini ko‘tarinki kayfiyatda yakunladik, — dedi kurash milliy sport turi bo‘yicha terma

jamoamiz murabbiyi Rizamat Soliyev. — Milliy kurashimiz — milliy faxrimiz! Uning Osiyo o‘yinlariga kiritilgani bizni yanada g‘ururlantiradi. Har bir davlat milliy sporti bunday nufuzli sport o‘yinlari dasturiga kiritilishini xohlaydi. Musobaqada 4 oltin, 1 kumush va 1 bronza medalni qo‘lga kiritdik. Kelgusi Olimpiya o‘yinlarida bundan-da katta yutuqlarga erishamiz, degan umiddaman.

Qahramonlarimizni kutib olganlarning chehrasi shodon, quvonch, shukronalik, xotirjamlikdan ko‘ngli ko‘tarilgan.

— Xursandchilgimning cheki yo‘q, — deydi Abdulalik Xalakovning onasi Nigora Yakubova. — Nafaqat o‘g‘limning, u bilan birga barcha sportchilarimizning g‘alabasi ham bizni quvontirdi. Ayniqsa, Prezidentimizning tabrigi bizni yanada xursand qildi. Bu yutuqlar zaminida davlatimizning sportga e‘tibori, qo‘llab-quvvatlovi turibdi. O‘g‘lim u yoqdan turib bizga qo‘ng‘iroq qilganida, sharoitlar a‘lo darajada ekani, ulardan faqat bellashuvlarga puxta

tayyorgarlik ko‘rish so‘ralayotganini ayt-di. Shunday sharoit yaratib berganlarga yana bir bor rahmat. O‘g‘lim g‘oliblik orqali 2024-yil Parijda o‘tadigan Olimpiadaga yo‘llanma oldi. Nasib etsa, oltin medal olishiga ishonaman.

Hassos ijodkor, O‘zbekiston xalq shoiri, senator Mahmud Toir tabrik uchun minbarga yo‘l oldi. Atletlarimizning mardonavor kurashi, g‘alaba shukuhiga bag‘ishlangan she‘r yangradi.

Tadbirning badiiy qismida O‘zbekiston xalq artisti, “El-yurt hurmati” ordeni sohibi Farrux Zokirov hamda estrada xonandalarining Vatan madhi tarannum etilgan qo‘shiqlari marosimga yanada fayz bag‘ishladi.

Marosimdan so‘ng sportchilarimiz joy olgan maxsus avtobuslar poytaxtimiz ko‘chalari bo‘ylab Milliy Olimpiya qo‘mitasi tomon yo‘lga chiqdi. Yo‘l chetidagi odamlar chempionlarga qo‘l siltagan, bolakaylar havas bilan qaragan: “Men ham katta bo‘lsam, chempion bo‘laman!”.

Ixlos bilan chin yurakdan qilingan niyatlar, albatta, amalga oshajak. Zero, yangi O‘zbekistonda mehnat qilgan inson aziz va qadrlil.

Bugun jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini ommalashtirishga berilayotgan e‘tibor yurtimizda yosh avlodning barkamol bo‘lishiga xizmat qilib, xalqaro arenalarda yurtimiz dovrig‘ini dunyoga yoymoqda.

Bu borada tizimli islohotlar amalga oshirildi. Prezidentimiz ishtirokida sportni yanada rivojlantirish borasida mutaxassislar bilan doimiy ravishda taqdimot va uchrashuvlar o‘tkazildi. Xususan, 2022-yil 1-aprel kuni yoshlar o‘rtasida ommaviy sportni rivojlantirish chora-tadbirlari bo‘yicha yig‘ilish, o‘sha yil 23-may kuni sportni ommalashtirish va iqtidorli sportchilarni tayyorlash chora-tadbirlari bo‘yicha videoselektor bo‘lib o‘tdi.

▶ Davomi 3-betda

QUTLAMOQ  
sharaf  
(XIX yozgi Osiyo o‘yinlarida  
zafar quchgan sportchilarimizga)

Xushxabar xush yoqar bori ellarga,  
Quvonch quvvat berar asli dillarga,  
Bayroq yarashadi g‘olib qo‘llarga,  
Kuchli beshtalikda o‘zbekcha sadaf,  
G‘olibin qutlamoq xalqiga sharaf!

Sizning qalbingizda Vatan kamoli,  
Sizning chehrangizda Vatan jamoli,  
Yangi O‘zbekiston — yangi iqboli,  
Sof niyat atalar — ushalgan matlab,  
Sizlarni qutlamoq biz uchun sharaf!

Yigirma ikkita oltin shodasi,  
Bu o‘zbek xalqiga shodlik bodasi,  
Olamni tutmishdir xush ovozası,  
Ular ko‘ksingizda turar yarqirab,  
Oltin sohiblarin qutlamoq sharaf!

Mayli, u Osiyo, mayli, u G‘arbdır,  
Bahodir boksı — o‘zbekcha zarbdır.  
Muzaffar, Murodjon bu — yangi safdir,  
Bobolar, momolar duosin jamlab,  
Mardi maydonlarni qutlamoq sharaf!

Yovqur To‘marisning yorug‘ izlari,  
Osiyo o‘yinlarin g‘olib qizlari,  
Yigirma to‘rt medal — oydek yuzlari,  
Taxmina, Safina, Sharifa, Zaynab,  
Nechun she‘r yozmayin Sizlarni qutlab?!

O‘ttiz bir bronza, o‘n sakkiz kumush,  
Bu ko‘kdan tushmadi — bu halol yumush.  
Kimlar buni hatto ko‘rmay ketdi tush,  
Maydon mardnikidir, mardlar biz taraf,  
Sizlarni qutlamoq bizlarga sharaf!

Har ulug‘ ish uchun imkon kerakdir,  
Imkon yaratguvchi inson kerakdir,  
Yurtboshim niyati — tog‘dek yuksakdir,  
Sizlarga toledan baxtu taxt tilab,  
Ona xalqimizni qutlamoq sharaf!

Mahmud TOIR,  
O‘zbekiston xalq shoiri

HAMKORLIK

STRATEGIK VA  
SERQIRRA  
SHERIKLIK RIVOJI

O‘zbekiston tashqi siyosatidagi ochiqlik, yaqin qo‘shnichilik, o‘zaro manfaatli hamkorlik va konstruktiv muloqot tamoyillari natijasida uzoq va yaqin xorij davlatlari bilan serqirra sheriklik aloqalari ko‘lami tobora kengaymoqda. Xususan, joriy yilning sentabr-oktabr oylari ana shunday muhim siyosiy voqealarga boy bo‘ldi. Prezidentimiz sentabr oyi o‘rtalari va oktabr oyi boshida jami 5 ta xorijiy davlatga safar qildi.

▶ Davomi 2-betda



MOLIYA BOZORI

“YASHIL” SUVEREN  
XALQARO  
OBLIGATSIYALARQANDAY MAQSADLARGA  
XIZMAT QILADI?

O‘tgan hafta oxirida mamlakatimiz moliya sohasida ro‘y bergan muhim bir yangilik ommaviy axborot vositalarida trendga aylandi. O‘zbekiston Respublikasi ilk bor 4,25 trillion so‘m miqdoridagi “yashil” suveren xalqaro obligatsiyalar hamda 660 million dollarlik xalqaro obligatsiyalarni London fond birjasiga joylashtirdi. Binobarin, so‘mda chiqarilgan suveren xalqaro obligatsiyalar MDH davlatlari ichida ilk “yashil” qimmatli qog‘ozlar hisoblanadi.

▶ Davomi 4-betda



JARAYON

TOSHKENT  
ARXITEKTURA  
FESTIVALIShu hafta o‘tkaziladigan  
mazkur tadbirning ahamiyati  
xususida

Joriy yil 11–15-oktabr kunlari poytaxtimizda Toshkent arxitektura festivali bo‘lib o‘tadi. Bu bejiz emas. Bugungi kunda mamlakatimizda qurilish-bunyodkorlik ishlari tobora kengayib, yangi massiv va shaharlar barpo etilyapti. Bular esa, o‘z navbatida, soha mutaxassislari o‘zaro tajriba almashishi, zamonaviy arxitektura tamoyillarini ishlab chiqish va amaliyotda qo‘llashni talab etadi. Festival shu jihatdan zarur tadbirdir.

▶ Davomi 4-betda



## HAMKORLIK

STRATEGIK VA  
SERQIRRA  
SHERIKLIK RIVOJI

**Suhrob BO‘RONOV,**  
Toshkent davlat sharqshunoslik  
universiteti dotsenti, siyosiy  
fanlar bo‘yicha falsafa doktori



O‘ZBEKISTON PREZIDENTNING ROSSIIYAGA RASMIY TASHRIFI DAVOMIDA ERISHILGAN NATIJALAR, BO‘LIB O‘TGAN TADBIRLAR, MUZOKARA UCHRASHUVLARI, UMUMAN, INTENSIV SIYOSIY, SAVDO-IQTISODIY VA MADANIY-GUMANITAR HAMKORLIK ALOQALARI IKKI TOMON O‘RTASIDAGI STRATEGIK VA SERQIRRA SHERIKLIK RIVOJI YO‘LIDA TASHLANAYOTGAN



Boshlanishi 1-betda

Jumladan, 14-15-sentyabrda Markaziy Osiyo davlatlarining maslahat uchrashuvi doirasida Tojikistonga, 19-20-sentyabrda BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasi va Markaziy Osiyo mamlakatlari hamda AQSH yetakchilarining “C5+1” formati doirasidagi birinchi sammiti bois, AQSHga bordi. Shuningdek, davlatimiz rahbari 28-30-sentyabrda Markaziy Osiyo — Germaniya birinchi sammiti doirasida Germaniyaga, 1-2-oktyabr kunlari Qatar davlatiga, 5-7-oktabr sanalarida esa Rossiya Federatsiyasiga tashrif buyurdi. Ushbu tashriflar va bu jarayonda ilgari surilgan g‘oya va tashabbuslar xalqaro hamjamiyatning Markaziy Osiyo mintaqasiga, ayniqsa, O‘zbekistonga qiziqishi tobora kuchayib borayotganining yana bir tasdig‘i bo‘ldi.

Shu o‘rinda davlatimiz rahbarining Rossiyaga rasmiy tashrifi va ikki tomonlama strategik sheriklik aloqalarining serqirra rivoji haqida to‘xtalsak. O‘zbekiston va Rossiya strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlariga ega yaqin hamkor davlatlar hisoblanadi. 2022-yilda O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasidagi keng qamrovli strategik sheriklik to‘g‘risida imzolangan deklaratsiya o‘zaro munosabatlarning yuqori



bosqichga ko‘tarilishida katta o‘rin tutadi. Bundan tashqari, ikki davlat yetakchilarining 2023-yil yanvar oyidan oktyabr oyigacha bo‘lgan telefon orqali muloqoti va o‘zaro tashriflaridan ham ikki tomonlama munosabatlarning oliy darajada ekanini ko‘rish mumkin. Masalan, shu vaqt oralig‘ida Shavkat Mirziyoyev va Vladimir Putin o‘rtasida 9 marta telefon orqali muloqot qilingan bo‘lsa, davlatimiz rahbarining Moskvaga 2 marta tashrifi amalga oshirildi.

Siyosiy aloqalar nafaqat davlat rahbarlari darajasida, balki hukumatlararo, vazirliklar o‘rtasida va hududlararo miqyosda ham muntazam rivojlanib bormoqda. Ayniqsa, hududlararo aloqalar kuchaydi. Ikki mamlakat hududlari rahbarlari joriy yilning dastlabki yarmida 50 ga yaqin tashrifni amalga oshirgani yuqoridagi fikrlarni tasdiqlaydi.

Rossiyaga tashrifning birinchi manzili bo‘lgan Qozon shahrida erishilgan kelishuvlar va davlatimiz rahbari tashrifidan bir kun avval bo‘lib o‘tgan uchinchi O‘zbekiston — Rossiya hududlararo forumi ham strategik sheriklik rivojining yangi sahifasini ochib berdi.

Rossiya O‘zbekistonning eng yirik savdo sheriklaridan biri. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi tahliliga ko‘ra, 2022-yilda O‘zbekistonning Rossiya bilan tovar ayirboshlash hajmi 23,6 foiz o‘shib, 9329,8 million dollarni tashkil etdi. Eksport sezilarli darajada — 48,4 foiz o‘shib, 3099,1 million dollarga, import 14,1 foiz o‘shib, 6230,7 million dollarga yetdi.

O‘zbekistonning tashqi savdo hamkorlari orasida o‘zaro savdo hajmi bo‘yicha 2022-yilda

Rossiya 18,6 foiz tovar ayirboshlash ulushi bilan birinchi o‘rinni egallagan bo‘lsa, O‘zbekiston eksportida Rossiyaning ulushi 16,1 foiz, importda esa 20,3 foizni tashkil etdi. Joriy yilning 8 oyi yakunlariga ko‘ra, O‘zbekistonning Rossiya bilan savdo aylanmasi o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 7,4 foiz o‘shib, 6167,9 million dollarga, eksport 5,1 foiz oshib, 1973,5 million dollarga, import 8,5 foiz o‘shib, 4194,4 million dollarga yetdi. O‘zbekistonning umumiy tashqi savdo aylanmasida Rossiyaning ulushi 15,4 foiz, eksportdagi ulushi 12 foiz, importdagi ulushi 17,8 foizni tashkil etdi.

Ikki tomonlama savdo hamkorligining o‘ziga xos jihati shundaki, ilgari o‘zaro tovar ayirboshlash tarkibining aksariyatini xom-ashyo tashkil etgan bo‘lsa, bugungi kunda savdoning 70 foizi yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlarga to‘g‘ri kelmoqda.

Rossiyaga tashrif doirasida ikki mamlakat hukumatlari va vazirliklari tomonidan 10 ta hujjat almashilgani savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorliklar sur‘atiga katta turtki beradi.

Rossiyadan Qozog‘iston hududi orqali O‘zbekistonga tabiiy gaz yetkazib berishga qaratilgan strategik loyihaga start berilishi tarixiy ahamiyatga ega bo‘ldi. Rossiya avvallari Markaziy Osiyoda, jumladan, Qozog‘iston va O‘zbekistonda bunday yirik gaz loyihalariga qo‘l urmagani edi.

O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasidagi hamkorlik rivojida madaniy-gumanitar sohaning ham katta o‘rni bor. Bu borada ta‘lim yo‘nalishi alohida ajralib turadi. Mamlakatimizda so‘nggi to‘rt yil ichida Rossiyaning 11 ta universiteti filiali ochilgani, hozir ular soni jami 14 tani tashkil etishi inobatga olinsa, O‘zbekiston Rossiyaning xorijdagi universitetlari filiallari soni bo‘yicha yetakchi ekani namoyon bo‘ladi. Shuningdek, hozir Rossiya ta‘lim muassasalarida 63 ming o‘zbek talabasi tahsil olmoqda. Yuqori malakali kadrlar tayyorlash maqsadida O‘zbekiston va Rossiya rektorlari forumi muntazam o‘tkazib kelinmoqda.

Moskvada “Lazgi” milliy baleti premyerasi, O‘zbekiston madaniyati kunlari, mamlakatimizda esa “Rossiya fasllari” loyihasi doirasidagi tadbirlar bo‘lib o‘tgan, davlat rahbarlari 2024-2025-yillarga mo‘ljallangan madaniy hamkorlik dasturini qabul qilishga kelishib olgani ushbu sohadagi hamkorlikni yuqori baholashimizga asos bo‘ladi.

Yil boshidan buyon O‘zbekistonda rossiyalik sayyohlar oqimi 20 foiz oshdi. Bu O‘zbekiston turizm jozibadorligiga rossiyalik sayyohlarning ham qiziqishi ortib borayotganidan dalolat beradi.

O‘zbekiston Prezidentining Rossiyaga rasmiy tashrifi davomida erishilgan natijalar, bo‘lib o‘tgan tadbirlar, muzokara uchrashuvlari, umuman, intensiv siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar hamkorlik aloqalari ikki tomon o‘rtasidagi strategik va serqirra sheriklik rivoji yo‘lida tashlanayotgan katta qadamlardir.



## INSON QADRI UCHUN

## QONUN IJODKORLIGI

**Mamlakatimizda inson sha’ni va qadr-qimmati daxlsizligi, hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo‘lishi mumkin emasligi, “Inson qadri uchun” tamoyili Konstitutsiyada, qonunlarimizda va davlat idoralari faoliyatida bosh mezon bo‘lishi shartligi qat’iy talabdir. Shu bois, yurtimizdagi islohotlar, jumladan, Bosh qonunimizda inson qadri, manfaati uchun xizmat qiladigan normalar avvalgisidan uch barobar ko‘paydi.**

**Saidbek AZIMOV,**  
**O‘zbekiston Respublikasi**  
**Oliy Majlisining Inson huquqlari**  
**bo‘yicha vakili (ombudsman)**  
**kotibiyati mudiri**



Fuqarolarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ishonchli ta‘minlash demokratik yangilanishlarning ustuvor yo‘nalishlaridan. Bu jarayonda davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, sud-huquq idoralari, shuningdek, mansabdor shaxslar — davlat amaldorlari faoliyati ustidan parlament nazoratini kuchaytirish orqali inson huquqlari ta‘minlanishiga erishish mumkin.

Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va mansabdor shaxs-



**2023-yilning 9 oyi davomida ombudsmanga O‘zbekiston, xorijiy davlatlar fuqarolari va ombudsmanlari, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar, jamoat tashkilotlari va boshqa yuridik shaxslardan jami 10 ming 211 murojaat kelib tushdi. Bu murojaatlar muntazam tahlil qilinib, qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Chunki murojaatlar tahlili sohalaridagi tizimli masalalarni aniqlash va ularni bartaraf etish imkonini beradi.**

lar tomonidan insonlarning huquq va erkinliklari to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga rioya qilinishi ustidan parlament nazoratini ta‘minlash vakolatiga ega.

Inson huquq va erkinliklari sohasidagi qonunchilikning umume’tirof etilgan tamoyillari hamda xalqaro normalarga uyg‘unligini ta‘minlash maqsadida ularni tahlil qilib borish parlament ombudsmanining asosiy vazifalaridan biridir.

Har qanday huquqiy davlatda qonun ijodkorligi faoliyati inson huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini kafolatlovchi eng muhim qoidalarga asoslanadi. Ushbu talab milliy qonunchilikni inson huquqlari bo‘yicha xalqaro huquqning umume’tirof etilgan norma va prinsiplariga muvofiqlashtirish orqali ta‘minlanadi.

Qonunchilikni takomillashtirishga doir faoliyat samaradorligi qonun loyihalarini har tomonlama huquqiy ekspertizadan o‘tkazishga bog‘liqdir. Jumladan, huquqni himoya qilishga oid qonun loyihalarining ekspertizasi o‘ta muhim va murakkab jarayon bo‘lib, ularda inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlari himoya qilinadi.

Ombudsman instituti Bosh prokuratura, Adliya vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Inson huquqlari bo‘yicha Milliy markaz, boshqa idoralar tomonidan ishlab chiqilib, Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga kiritilgan, “project.gov.uz”

orqali kelib tushgan qonun loyihalarini hamda normativ-huquqiy hujjatlarni o‘rganib chiqadi. Xususan, 2023-yilning 9 oyi davomida 20 ta qonun loyihasi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar loyihasining 150 moddasi va bandiga taklif hamda mulohazalar bildirildi.

Inson huquqlari himoyasiga oid yechimini kutayotgan muammolar aynan murojaatlar bilan ishlash bo‘yicha kundalik amaliyotda,



monitoring tashriflari va o‘rganishlarida yuzaga chiqadi. Shu nuqtayi nazardan, yangilangan Konstitutsiyamizda ombudsman instituti qonunchilik takliflarini qonunchilik tashabbusi tartibida parlament quyi palatasiga kiritishga haqli ekani belgilab qo‘yildi.



## BIZ VA DUNYO

SAMARQAND SHAHRI BUTUNJAHON TURIZM  
TASHKILOTINING 25-SESSIIYASIGA MEZBONLIK  
QILAYOTGANI UCHUN MINNATDORLIK BILDIRILDI

**Joriy yil 5-oktabr kuni Eronning Ardabil shahrida o‘tkazilgan Iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga (IHT) a‘zo davlatlar turizm vazirlarining 5-yig‘ilishida O‘zbekistonning Erondagi elchisi Bahodir Abdullayev boshchiligidagi vakolatxona delegatsiyasi ishtirok etdi.**



Tadbir yakuni bo‘yicha Ardabil deklaratsiyasi qabul qilindi. Ushbu hujjatda 2022-yil 13-dekabr kuni O‘zbekiston raisligida o‘tkazilgan IHTga a‘zo davlatlar turizm vazirlarining 4-yig‘ilishi va uning doirasida qabul qilingan IHT mintaqasida COVID-19 pandemiyasidan keyin turizm sohasini jadal tiklash, xavfsiz va barqaror rivojlantirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” ijrosining ijobiy natijalari qayd etilgani barobarida Shahrisabz shahri 2024-yilda IHT turizm poytaxti, deb e’tirof etilgani munosabati bilan qutlandi.

Shuningdek, 2023-yilda Samarqand shahri Butunjahon turizm tashkilotining (UNWTO) 25-sessiyasiga mezbonlik qilayotgani uchun O‘zbekistonga minnatdorlik bildirildi. Bu, shubhasiz, nafaqat mamlakatimiz, balki butun mintaqa uchun qulay imkoniyat ekani qayd etildi.

Tadbir doirasida Ardabil gubernatori Seyid Hamed Ameliy bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvda 2023-yil 18-iyun kuni O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Tehronga hamda Eron Prezidenti Sayid Ibrohim Raisiyning 2022-yil

2023-yilning 9 oyi davomida ombudsman-ga O‘zbekiston, xorijiy davlatlar fuqarolari va ombudsmanlari, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar, jamoat tashkilotlari va boshqa yuridik shaxslardan jami 10 ming 211 murojaat kelib tushdi. Bu murojaatlar muntazam tahlil qilinib, qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Chunki murojaatlar tahlili sohalaridagi tizimli masalalarni aniqlash va ularni bartaraf etish imkonini beradi.

Ombudsman harakatlanish erkinligi cheklangan yopiq muassasalarda saqlanayotgan mahkum va mahbuslar murojaatlarini ham ko‘rib chiqmoqda. Shuningdek, ombudsman huzurida qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarining oldini olish bo‘yicha 2019-yili joriy etilgan milliy preventiv mexanizm (MPM) doirasida penitensiar muassasalarga jamoatchilik vakillari bilan birgalikda muntazam monitoring tashriflarini amalga oshirishi yo‘lga qo‘yildi. Prezidentimizning 2021-yil 26-iyundagi “Qiynoqqa solish holatlarini aniqlash va ularning oldini olish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori bilan ombudsman huzuridagi MPM faoliyati yanada takomillashtirildi. Jumladan, qiynoq holatlarini aniqlash va ularning oldini olish bo‘yicha jamoatchilik guruhlarini tashkil etildi.

Qiynoqqa solish holatlarining oldini olish borasida jamoatchilik guruhlari bilan birgalikda joriy yilning 9 oyi davomida qamoqda saqlash joylarida 452-marta monitoring tashrifi amalga oshirildi. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 2 barobar oshgan. Monitoring tashriflari davomida bu joylarda saqlanayotgan shaxslarning sharoitlari, mehnat qilish, tibbiy yordam ko‘rsatish hamda ularga nisbatan bo‘ladigan munosabat va muomala holatlari o‘rganiladi va ular bilan suhbatlar o‘tkaziladi.

2017–2023-yillar davomida mahkumlarning huquq va erkinliklarini yanada takomillashtirishga qaratilgan 3 ta qonun, Prezidentning 1 ta farmoni, 6 ta qarori, hukumatning 11 ta qarori va farmoyishi, 14 ta boshqa normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi.

Qolaversa, Konstitutsiyamizda hech kim qiynoqqa solinishi mumkin emasligi hamda ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarga nisbatan insoniy muomalada bo‘linishi mustahkamlandi.

Joriy yilning 8-may kuni Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar, sud va ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlari hamda jamoatchilik faollari bilan yangilangan Konstitutsiyani hayotga joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlar muhokamasiga bag‘ishlangan majlisda Prezidentimiz barqaror rivojlanib borayotgan iqtisodiyotga asoslangan, ochiq demokratik huquqiy davlat qurish, inson, uning manfaatlari, huquq va erkinliklari so‘zda emas, amalda oliy qadriyat darajasiga ko‘tarilgan, jahon miqyosida obro‘-e’tibor qozongan jamiyat barpo etish asosiy maqsadimiz ekanini alohida qayd etdi.

Belgilab berilgan ustuvor yo‘nalishlar, o‘z navbatida, parlament ombudsmaniga mamlakatimizda inson huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda ta‘minlashda katta mas’uliyat yuklaydi.

14-16-sentabr kunlari Samarqandga rasmiy tashriflari chog‘ida erishilgan kelishuvlar ijrosi yuzasidan o‘zaro fikr almashildi.

Muloqotda Ardabil va Shahrisabz o‘rtasidagi mushtarak tarixiy aloqalar qayd etilar ekan, ushbu ikki shahar o‘rtasida birodarlashuv munosabatlarini o‘rnatish hamda iqtisodiy, turizm va madaniy aloqalarni rivojlantirish taklifi ilgari surildi, O‘zbekiston viloyatlari va Ardabil shahri o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aviaqatnovlarni amalga oshirish masalasi ham muhokama etildi.

Shuningdek, “Rahan Sazeh Consulting Engineers” osma ko‘priklar qurish va “Proheal” dorivor o‘simliklar kompaniyalari rahbarlari hamda Ardabil sayyohlik agentliklari uyushmasi raisi va qator sayyohlik kompaniyalari rahbarlari (“ALMA Tour & Travel”, “Maral Tours”, “Ershad Hotel & Hydrotherapy” va hokazo) bilan ikki tomonlama uchrashuvlar o‘tkazildi.

Uchrashuvlar chog‘ida Eronning turizm sohasi vakillari 2023-yil 16-20-oktyabr kunlari Samarqand shahrida bo‘lib o‘tajak Butunjahon turizm tashkilotining (UNWTO) 25-sessiyasi doirasidagi tadbirlarga, jumladan, investforumga taklif etildi.



**Sherzod MAHMUDOV,**  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



## MOLIYA BOZORI

# “YASHIL” SUVEREN XALQARO OBLIGATSIYALAR

## QANDAY MAQSADLARGA XIZMAT QILADI?

**Abdurauf QORJOVOV,**  
iqtisodiy sharhlovchi



2022-yilda yuzaga kelgan geosiyosiy holat tufayli xalqaro moliya bozorlaridagi barqarorlik buzilishi natijasida foiz stavkalari ko'tarilib ketdi. Masalan, AQSH dollarida joylashtirgan suveren obligatsiyalarimizning daromadliligi ikkilamchi bozorda 9,5 foizgacha o'sdi. Albatta, bu mamlakatimizning oldingi yillarda joylashtirgan qimmatli qog'ozlari foiz to'lovlariga ta'sir qilmaydi, chunki ular o'zgarmas (fixed) hisoblanadi.



Boshlanishi 1-betda

Shu o'rinda obligatsiya o'zi nima va u qanday maqsadlarga xizmat qiladi, degan savolga aniqlik kiritib o'tsak. Obligatsiya — qiymatiga nisbatan egasiga qat'iy belgilangan daromad keltiruvchi qimmatli qog'oz, qarzni qaytarib berish va foiz to'lashni tasdiqlovchi majburiyatnoma. Fond birjalarda sotiladi. Obligatsiya aholi, korxona va tashkilotlar qo'ldagi pul mablag'larini to'plab, biror maqsad yo'lida safarbar etish uchun chiqariladi.

Yevroobligatsiyalar yoki yevrobonlar deb emitent uchun xorijiy bo'lgan valyutada chiqariladigan obligatsiyalarga aytiladi. Misol uchun, O'zbekistonning xalqaro moliya bozorlariga AQSH dollarida joylashtirgan obligatsiyalari yevroobligatsiyalar deb ataladi. Milliy valyutada dunyo moliya bozorlariga joylashtirilgan qimmatli qog'ozlar esa suveren xalqaro obligatsiyalar hisoblanadi.

Mamlakatimizning ushbu qimmatli qog'ozlaridan tushadigan mablag'lar suv tejoyvchi texnologiyalarni rivoj qilish, temir yo'l va metro transportini rivojlantirish, sanitar tozalash ishlarini tashkil etish va aholi punktlarida tozalikni ta'minlash, shamol eroziyasiga va suv xo'jaligi obyektlarining qum bosishiga qarshi ihotada daraxtzorlari barpo etish kabi loyihalarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan bo'is. “yashil” suveren xalqaro obligatsiyalar deb ataladi.

Shu maqsadda joriy yilning 2-4-oktabr kunlari Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Markaziy bank vakillaridan iborat O'zbekiston Respublikasi delegatsiyasi Nyu-York, Boston va London shaharlarida 50 dan ortiq investorlar bilan uchrashuvlar o'tkazdi. Mazkur muloqotlarda yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan, yashil iqtisodiyotga o'tish, tabiiy gaz va elektr energiyasi narxlari bozorini liberalashtirish, davlat korxonalarini xususiyashtirish hamda Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish orqali savdo-sotiqni erkinlashtirish siyosati hamda “O'zbekiston — 2030” strategiyasida belgilangan maqsad va chora-tadbirlar investorlar tomonidan yuqori baholandi.

Qayd etish joiz, mazkur yo'nalishlarni tanlab olish jarayoniga BMTning rivojlantirish dasturi jalb qilingan. “Yashil” obligatsiyalar dasturi bo'yicha “Sustainalytics” tomonidan ikkinchi tarafdin jiboy xulosasi olingan.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi matbuot xizmati xabariga ko'ra, mamlakatimizning milliy valyutadagi “yashil” obligatsiyalariga bo'lgan yuqori talabni inobatga olib, 3 yillik so'mdagi xalqaro obligatsiyalarning foiz stavkalarini (kupon to'lovi) kutilgan 18 foizdan 16,25 foizga tushirishga muvaffaq bo'ldi. Mazkur tranzaksiya bilan so'ndirish muddati joriy yilning 23-noyabr kuni bo'lgan 1,9 trillion so'm miqdoridagi xalqaro obligatsiyalar muddatidan oldin so'ndirildi.

Ma'lumot o'rinda aytish joiz, ichki moliya bozorlarida o'tkazilgan so'nggi auk-sionda (26-sentyabr) 2 yillik davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha foiz stavkalari 17,57 foizni tashkil qilgan. Ikkilamchi bozor kotirovkalari hamda investorlar takliflari-dan kelib chiqib, AQSH dollaridagi mamlakatimizning 5 yillik suveren xalqaro obligatsiyalari uchun dastlabki foiz stavkasi 8,50-8,625 foiz oralig'ida e'lon qilindi.

Ikkilamchi bozorda O'zbekiston Respublikasining 2019-yilda so'ndiriladigan xalqaro obligatsiyalari foiz stavkasi 8,1 foizga yetgan. Xususan, so'nggi bir haftada foiz stavkalari 0,43 foiz oshgan. Buyurtmalar kitobi 1,7 milliard dollarga yetganda, foiz stavkalarni 8,25-8,375 foizga tushirishga erishildi.

Yakuniy talab 2 milliard dollarga yet-gach, 660 million dollar miqdoridagi obligatsiyalar 8,125 foiz stavkada hamda 7,85 foiz kuponda chiqarildi. Ushbu kupon stavkasi moliyaviy maslahatchilar tomoni-dan tavsiya etilib, xalqaro obligatsiyalarni investorlarga 98,888 foiz narxda sotilishini

anglatadi. Ya'ni mazkur tranzaksiyadan 652,6 million dollar mablag' kelib tushadi. Bugungi kunda jahon moliya bozorida foiz stavkalarining oshishi kuzatilmoqda. Xususan, 5 yillik AQSH G'aznachilik obligatsiyalari foiz stavkalari 2021-yil iyul (so'nggi marta suveren obligatsiyalar chiqarilgan davr) oyiga nisbatan qariyb 4 foiz oshib, 0,8 dan 4,7 foizga o'sdi.

Jahon moliya bozorida foiz stavkala-rining ko'tarilishi, mos ravishda, xalqaro moliya institutlarining imtiyozli foiz stavka-larining ham keskin oshishiga sabab bo'lmoqda. Xalqaro kredit bozorida ish-latiladigan SOFR (oldin LIBOR) stavkasi 2021-yil iyul oyidan beri 0,17 foizdan qa-riyb 5,3 foizga, bugungi kunga kelib, 5,5 foiz oshdi. Shuning uchun xalqaro moliya institutlari tomonidan jalb qilinayotgan im-tiyozli kreditlar bo'yicha foiz stavkalar ham ikki yil ichida 1-2 foizdan, bugungi kunga kelib, 6,3-7 foizga yetdi.

Joriy bozor sharoitlari sababli boshqa mamlakatlar ham oldingiga nisbatan yuqori foiz stavkalarida davlat qarzlarni



jalb qilmoqda. Misol uchun, Turkiya joriy yil yanvar oyida 2,75 milliard dollarga teng 10 yillik suveren xalqaro obligatsiyalarini 9,75 foizdan, Vengriya 1,25 milliard dol-larga teng 30 yillik obligatsiyalarini 7,1 foiz-dan, Ruminiya ham xuddi shu qiymat va muddatdagi obligatsiyalarini 7,67 foizdan, Mo'g'uliston 445 million dollarga teng 5 yillik xalqaro obligatsiyalarini 8,65 foizdan, Misr esa joriy yil fevral oyida 1,5 milliard dollarga teng 3 yillik suveren xalqaro obligatsiyalarini 11 foizdan, Bahrayn ikki oy o'tib, aprelda 1 milliard dollarga teng 12 yillik obligatsiyalar-i ni 7,75 foizdan joylashtirgan.

Yashil obligatsiyalarni joylashtirishdan kelib tushgan mablag'ning sarflanishi yu-zasidan hisobot xalqaro standartlarga mu-vofiq shakllantiriladi va e'lon qilib boriladi.

### BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI ASOSIDA

2020-yil 19-noyabr kuni ilk bor O'zbekiston Respublikasining 2 trillion so'm miqdorida milliy valyutadagi xalqaro suveren obligatsiyalari jahon bozoriga joylashtirildi. Ushbu tranzaksiya hisobidan moliyalashtiriladigan loyihalarning BMT tomonidan belgilangan “Barqaror rivojlanish maqsadlari”ga ta'siri “JP Morgan Develop-ment Finance Institution” tomonidan yuqori baholandi va tranzaksiya “Rivojlanishni moliyalashtirish obligatsiyasi” maqomini oldi.

2021-yil 12-iyul kuni yana O'zbekiston “Barqaror rivojlanish maqsadlari”ga erishishga yo'naltirilgan 2,5 trillion so'm miq-dorida milliy valyutadagi xalqaro suveren obligatsiyalari xalqaro moliya bozoriga qo'ydi. Ushbu tranzaksiya MDH mamlakat-lari tomonidan chiqarilgan birinchi BRM obligatsiyalari hisoblanadi.

Ma'lumki, BMTning 2030-yilgacha Barqaror rivojlanish bo'yicha kun tartibiga 17 ta maqsad kiritilgan bo'lib, ular aso-



san aholining ijtimoiy-iqtisodiy darajasini oshirishga qaratilgan. Misol uchun, qash-shoqlikni kamaytirish, aholining turmush darajasini oshirish, toza ichimlik suv bilan ta'minlash, munosib ish o'rinlari yaratish, ta'lim sifatini yaxshilash, gender tengligi-ni qo'llab-quvvatlash, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va infratuzilma barqaror-ligini yaratish kabi yo'nalishlarni qamrab oladi.

O'zbekiston ham BMTning maqsad-lariga mos keladigan 16 ta milliy BRMni o'z ichiga oluvchi Barqarorlik modelini ish-lab chiqdi. Bu — mamlakatimiz hukumati BRMga erishishga qat'iy intilayotganidan dalolat beradi. Biroq bu maqsadlarga erishish nafaqat qat'iylik va kuchli iroda talab qiladi, balki katta miqdordagi inves-titsiya mablag'larini ham zarur bo'ladi. BMT Taraqqiyot dasturi (BMT TD) tomonidan o'tkazilgan baholash natijalariga ko'ra, mamlakatimizning milliy BRMga erishishi



uchun yiliga 4,6-6 milliard dollar miqdorida investitsiyaga kerak.

Shu sababli zarur mablag'ni jalb qi-lish uchun Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan xalqaro investorlarni jalb qilish va milliy BRMga erishish imkonini beruv-chi tematik obligatsiyalar chiqarish amali-yoti yo'lga qo'yildi. Natijada 2021-yilda O'zbekistonning BRM obligatsiyalari das-turi ishlab chiqildi. Ushbu dastur xalqaro



standartlar asosida tayyorlangan bo'lib, BRM obligatsiyalaridan kelib tushgan mablag'ning taqsimlanishi, sarflanishi va ular hisobidan moliyalashtiriladigan loyi-halarni monitoring qilish mexanizmlarini belgilab beradi.

O'zbekiston obligatsiya chiqardi va xalqaro moliya bozoriga joylashtirdi degani, oddiy qilib aytganda, bu — O'zbekiston investorlardan ma'lum yillik foiz to'lovini to'lab borish va asosiy qarzni belgilangan muddatda qaytarish sharti bilan qarz mablag'ini jalb qildi, degani.

Misol uchun, 2021-yilda 2,5 trillion so'm miqdorida 3 yil muddatga yillik 14 foiz bilan obligatsiya chiqarildi, ya'ni xalqaro investorlardan 3 yil davomida har yili faqatgina 350 milliard so'm miqdori-da foiz to'lovini to'lab borish, 2,5 trillion so'm miqdoridagi asosiy qarzni esa 3 yil o'tgach, qaytarib to'lab berish sharti bilan qarz olindi. Buning uchun xalqaro inves-torlar oldida ushbu qarz mablag'ini faqat belgilangan maqsadlar uchun sarflash majburiyati zimmaga olindi va amalda shunday qilindi ham.

Xususan, mazkur tranzaksiyalar aso-sida 12 ta yangi maktabgacha ta'lim tash-kiloti qurildi va 23 ta bolalar bog'chasi rekonstruksiya qilindi, 2 ta yangi maktab barpo etildi va 31 ta maktab ta'mirdan chiqarildi. Bundan tashqari, 7 ta yangi kasalxona bunyod etildi va 29 ta shifo-xona ta'mirlandi, 16 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun 10 turdagi qariyb 20 mil-lion doza vaksina olindi, 14 ta loyiha doirasida 82,8 kilometr uzunlikdagi ka-nallar rekonstruksiya qilindi, 222 kilometr uzunlikdagi ichimlik suv va kanalizatsiya quvvurlari tortildi.

Shu jumladan, qiymati salkam 4 trillion so'm bo'lgan Toshkent shahridagi yangi yer usti aylanma metrosi qurilishi uchun respublika byudjetidan ajratilgan xara-jatlarning 922 milliard so'm miqdori 2,5 tril-lion so'mlik obligatsiyalar hisobidan qoplab berildi.

2022-yilda yuzaga kelgan geosiyosiy holat tufayli xalqaro moliya bozorlari-dagi barqarorlik buzilishi natijasida foiz stavkalari ko'tarilib ketdi. Masalan, AQSH dollarida joylashtirgan suveren obligatsi-yalarimizning daromadliligi ikkilamchi bo-zorda 9,5 foizgacha o'sdi. Albatta, bu mam-lakatimizning oldingi yillarda joylashtirgan qimmatli qog'ozlari foiz to'lovlariga ta'sir qilmaydi, chunki ular o'zgarmas (fixed) hi-soblanadi.

— Bugungi kunda jahon tendensiyasi ko'rsatmoqdaki, xorijiy fond birjalarda moliyaviy instrumentlarning yuzlab tur-lari amal qilmoqda, — deydi Bank-moliya akademiyasi kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor Samariddin Elmizayev. — Toshkent respublika fond birjasida esa oddiy va imtiyozli aksiyalar hamda qisman korporativ obligatsiyalar joylashtirilgan. Jahon iqtisodiyotida iqlim o'zgarishlaridan kelib chiqqan holda, global yashil taraqqiyotga intilish nuqtayi nazaridan so'nggi yillarda “yashil” obli-gatsiyalarni ham muomalaga chiqarish, joylashtirish va jalb qilingan kapitalni yashil loyihalarga yo'naltirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bu borada Qoraqalpog'istonning Beruniy tumanida quyosh elektr stansiyasi-ni ishga tushirish bo'yicha Saudiya Arabis-tonining “Acwa Power” kompaniyasi bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyiha, qator tijorat banklari tomonidan aholi xo-nadonlariga quyosh panellari o'rnatish bo'yicha “yashil” kreditlar taklif qilinayot-gani e'tiborga molik, albatta.

Mamlakatimizda ularga qo'shimcha ravishda “yashil” obligatsiyalarni muoma-laga chiqarish va joylashtirish infratuzilma



## JARAYON

# TOSHKENT ARXITEKTURA FESTIVALI

## Shu hafta o'tkaziladigan mazkur tadbirning ahamiyati xususida

**Azamat TO'XTAYEV,**  
O'zbekiston Me'morlar uyushmasi Raisi



2030-yilgacha barcha aholi punktlarining bosh rejalari tayyor bo'lishi, bunda aholi va tadbirkorlar fikri hamda tashabbuslari inobatga olinishi kerak. Bu maqsadlarga esa kelgusi yetti yilda 2 trillion so'm yo'naltiriladi. Prezidentimiz bu xususda o'z saylovoldi dasturida alohida fikr bildirgan edi.



Boshlanishi 1-betda

Qayd etilganidek, shaharu qishloqlari-mizda ishlab chiqarish va ijtimoiy infra-strukturalar, transport va muhandislik tar-moqlarini rivojlantirish orqali aholi turmush darajasini yanada yuksaltirish, odamlarning daromadini yaxshilashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada so'nggi 6 yil davomida olib borilgan ishlarni tahlil qiladi-gan bo'lsak, shu vaqt ichida arxitektura va shaharsozlik sohasida 537 ta texnik norma-tiv hujjat, 255 ta shaharsozlik norma va qoi-dalari, 9 ta texnik reglament ishlab chiqildi. 273 ta me'moriy standart zamon talablari asosida yangilandi.

Bino va inshootlarning energiya samara-dorligini oshirish va qayta tiklanuvchi ener-giya manbalaridan foydalanishga oid 10 ta



normativ hujjat Yevropa standartlari asosida takomillashtirildi. Natijada shahar va qishloq-larimiz arxitektura qiyofasini zamon talablari asosida o'zgartirish uchun shaharsozlik nor-ma va qoidalari ishlab chiqildi. Bosh rejalar, namunaviy loyihalar asosida ijtimoiy infratu-zilmalar, transport va muhandislik tarmoqlari rivojlantirildi. Bu jarayon bugun ham izchil davom ettirilmoqda.

Shuningdek, 2017-yildan boshlab shahar va qishloqlar uchun alohida-alohida Davlat dasturlari qabul qilindi. Ushbu dasturlar ijrosi ta'minlanishida chet el tajribasini o'rganishga ham e'tibor qaratilib, Bosh loyiha institutlarini jalb etgan holda, arxitektorlar, quruvchilar-dan iborat guruhtar AQSH, Belgiya, Gret-siya, Italiya, Niderlandiya, Koreya, Xitoy, Germaniya, Belarus kabi davlatlarda tajriba almashib qaytdi.

Ma'muriy islohotlar doirasida shaharsoz-likda tegishli normativ hujjatlar tizimi ya-ratilib, ular soha faoliyati, ya'ni loyihalashtirish, loyihalarni ekspertiza qilish, pudrat savdo-larini o'tkazish, qurish, qurilish sifati ustidan davlat nazoratini olib borish, bitgan obyektlarni foydalanishga qabul qilishda davlat boshqaruvini samarali tashkil etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, “O'zbekiston Respublikasining shaharsozlik kodeksi” yan-gidan qabul qilindi. Shaharsozlik sohasida yangi tahrirdagi kodeksning ahamiyati juda katta va ushbu yo'nalishda bugun ishlab chiqilayotgan huquqiy-me'yoriy hujjatlar shunga asoslanadi.

Bular samarasini ayni paytda respub-likamizning barcha hududlarida qad ko'tarayotgan muhtasham binolar, sanoat korxonolari, ta'lim muassasalari, turli in-shootlarda ko'rish mumkin.



Shu o'rinda turar joylar, ijtimoiy-maishiy obyektlar qurilishini rivojlantirish hamda mu-handislik-kommunikatsiya va yo'l-transport infratuzilmalarini yangilashni hisobga olgan holda, aholi punktlarining zamonaviy arxitek-tura qiyofasini shakllantiruvchi shaharsozlik hujjatlari (Bosh reja, batafsil rejalashtirish loyihalari, qurish loyihalari) bilan ta'minlash yuzasidan kompleks chora-tadbirlarni tizimli amalga oshirish lozimligini aytish joiz. Ayni shu maqsadda mavjud shahar va qishloq aholi punktlarining 1370 ta shaharsozlik hujjati, shuningdek, “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida 1944 ta ahvoli og'ir mahal-laning bosh reja sxemalari ishlab chiqildi.

Bundan tashqari, davlatimiz rahbarining tegishli qarori asosida 2018-2022-yillarda 138 ta shahar hamda

55 ta qishloq aholi punkting Bosh rejai-si loyihalari hamda Vazirlar Mahkamasi qaroriga

binolan, 316 ta qishloq aholi punkting shaharsozlik hujjatlari ishlab chiqildi. Joriy yilda yana 225 ta shaharsozlik hujjati hamda 42 hududning master rejalari tayyorlanadi.

Umuman olganda, 2030-yilgacha barcha aholi punktlarining bosh rejalari tayyor bo'lishi, bunda aholi va tadbirkorlar fikri hamda tashabbuslari inobatga olinishi kerak. Bu maqsadlarga esa kelgusi yetti yilda 2 trillion so'm yo'naltiriladi. Prezidentimiz bu xususda o'z saylovoldi dasturida alohida fikr bildirgan edi.

Bugungi kunda yuqorida qayd etilgan vazifalar ijrosini ta'minlash borasida tegishli vazirlik va idoralar tomonidan ishlar olib borilmoqda. Jumladan, ilk marotaba O'zbekiston Respublikasi hududi va uning qismlarini rivoj-lantirishni rejalashtirish to'g'risidagi hujjatlarni ishlab chiqish bo'yicha jarayon kechmoqda. Shu bois, shaharsozlik sohasida faoliyat yurit-gan xorijiy tajribaga ega mutaxassislar masla-hatchi sifatida Bosh loyiha institutlariga jalb qilyapti.

Shu bilan birga, aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish tizimi-ga — hududlarda yer ajratish, obyektlarni joylashtirish-kelishish, navbatchi bosh rejani yuritish va joylarda Arxitektura va shaharsoz-lik kengashlarining ish faoliyatiga tegishli o'zgartirishlar kiritilib, ushbu yo'nalishda dav-lat boshqaruvini samarali tashkil etish yuzasi-dan choralar ko'riyapti.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, Xalqaro MDH davlatlari uyushmasi Muvofiglashtiruv-chi kengashi yig'ilishi doirasida eng yaxshi binolar, loyihalar, arxitektura, shaharsozlik yo'nalishidagi ilmiy ishlar va talabalarning eng yaxshi ishlari uchun an'anaviy tanlov o'tkaziladi.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



TA'LIM ODIMLARI

## YUKSAK FURUR VA MAS'ULIYAT

## nazariya va amaliyot uyg'unligida oqlanadi

**Murodxon QODIRXONOV,**  
Namangan davlat pedagogika instituti  
prorektori, kimyo fanlari nomzodi, dotsent

Oldin muallim deganda ko'z o'ngimizda qir-qirq beshta daftarni quchoqlab, hali paxtaga, hali ko'cha tozalashga chiqayotgan inson gavdalanardi. Hozir esa boshqacha: zamonaviy, ilg'or, kreativ g'oyalarga ega yetuk shaxs namoyon bo'ladi.

Prezidentimiz O'qituvchi va murabbiylar kuni bayrami munosabati bilan yo'llagan tabrigida o'qituvchi va uning jamiyatdagi maqomi xususida bunday dedi: "Bu yil yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ilk bor o'qituvchi maqomi alohida belgilanib, ta'lim tizimini rivojlantirish davlatning bosh vazifalari qatoriga kiritilgani bejiz emas. Chunki jamiyat hayotida o'qituvchining o'rni va ta'siri oshsa – maktabning obro'yi oshadi, ilm-fan, ta'lim va tarbiya sohasining qadri ko'tariladi. Muallimning obro'-e'tibori esa bu millatning, butun xalqning obro'-e'tiboridir".

Mamlakatimizda davlat boshqaruvini tubdan yangilash, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish borasida keng ko'lami yangilanish va tashabbuslar boshlandi. Ularni hayotga tatbiq etish ijtimoiy taraqqiyot mas'uliyatini o'z zimmasiga oladigan, vatanparvar, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatiga ega, iqtidorli, malakali, professional kadrlarga juda katta ehtiyojni vujudga keltirdi. Bu esa, birinchi navbatda, jamiyatni ta'lim sohasida tub islohotlarga undaydi. Bugun mana shu yangilanishlarning qoq markazida turibmiz.

Prezidentimizning 2022-yil 21-iyundagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va ularda boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, ilg'or xorijiy tajribalarni joriy qilgan holda, zamonaviy ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, yuqori malakali professional kadrlar tayyorlash ko'zda tutildi. Ilm-fan va amaliyot



uyg'unligini ta'minlash maqsadida qator pedagogik oliy ta'lim muassasalari tashkil etildi.

Qarorda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash uchun Namangan davlat pedagogika instituti professor-o'qituvchilari talabalarda tahlil va ijodiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan metodika, ta'lim dasturlarini ishlab chiqmoqda hamda o'quv jarayoniga bosqichma-bosqich tatbiq etmoqda. Nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirish, pedagog kadrlarda kompetensiyalarga asoslangan kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish jarayoni o'qitish amaliyoti hamda xalqaro baholash dasturlariga muvofiqlashtirilmoqda.

Bugun dunyoda yetakchilik qilayotgan xorijiy davlatlar tajribasini amaliyotga qo'llash zamon talabidir. Shu ma'noda, institutning tajribali pedagoglaridan biri Munojatxon Asranbayeva Finlyandiya stajirovka o'tadi. Ushbu mamlakatning umumiy savodxonlik darajasi yuqori,

o'quvchilari tabiiy fanlar va matematika bo'yicha dunyoda ilg'orlardan sanaladi. Ayni paytda dunyo mamlakatlari pedagoglari e'tiboridagi o'qitish tajribasi Finlyandiya ta'lim tizimida mujassam bo'lib, qariyb o'n yildan ortiq vaqt davomida bu davlatdagi 15 yoshli o'quvchilar PISA xalqaro baholash dasturida muntazam eng yaxshi natija ko'rsatmoqda. Ana shu ilg'or innovatsion tajribalarni amaliyotga tatbiq etish borasida institutda ham qator samarali ishlar bajarilmoqda.

Namangan davlat pedagogika instituti tashkil etilgandan boshlab qisqa muddatda ko'plab muvaffaqiyatlarga erishildi. Professor-o'qituvchilar ilmiy hamda pedagogik faoliyatda yuqori natijalarni qo'lga kiritgan bo'lsa, iqtidorli talabalar ham bir qator yutuqlarga ega bo'lmoqda. Jumladan, "Talabalar teatr studiyasi", "Ma'rifat maydoni", "Intellektual olimpiada" tanlovlari munosib ishtirok etishmoqda. Talaba Akmaljon Abdujabborov viloyat va respublika miqyosidagi sport musobaqalarida yuqori natijalarni egalayotgan bo'lsa, Abdurashid Boltaboyev para taekvondo bo'yicha o'tkazilgan "Oltin vodi" kubogi musobaqasida birinchi o'rin sohibi bo'ldi. Fazliddin Erkinboyev Ispaniya hamda Ruminiyada o'tkazilgan boks bo'yicha yoshlar o'rtasidagi xalqaro turnirlarda jahon chempionligini qo'lga kiritdi. Yoshlarning bu muvaffaqiyati e'tibordan chetda qolayotgani yo'q. O'tgan o'quv yilida tarlov va musobaqalardagi yutug'i tufayli talabalar 100 million so'mdan ortiq pul mukofoti bilan rag'batlantirildi.

Institutning ilmiy salohiyati ham kundan-kun oshib bormoqda. Xususan, ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi kafedrasida katta o'qituvchisi Abdujabbor Qambarov, maktabgacha va



**Mamlakatimizda nafaqat ma'naviy-ma'rifiy, balki boshqa sohalarda ham amalga oshirilayotgan islohotlar, yangilanishlar aynan o'qituvchi shaxsi, kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasiga bevosita bog'liq bo'layotir. Bu esa pedagogika yo'nalishida faoliyat yurituvchi professor-o'qituvchilarga yuksak sharaf keltirishi bilan birga, zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklaydi.**

boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida katta o'qituvchilari Dilafroz Oribboyeva va Nodira Mahmudova PhD ilmiy darajasini muvaffaqiyatli yoqladi. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida dotsenti Dilbar Boymirzayeva Innovatsion rivojlanish agentligining yosh olimlarni yetakchi xorijiy ilmiy tashkilotlarga qisqa muddatli ilmiy stajirovkalarga yuborish bo'yicha o'tkazilgan saralash tanlovida g'olib bo'ldi hamda Germaniyaning Bamberg universitetida bir oy muddatli ilmiy stajirovka o'tab qaytdi.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining tegishli buyrug'iga asosan, Namangan davlat pedagogika instituti bir guruh professor-o'qituvchilarining darslik va o'quv qo'llanmalari nashr etishga tavsiya qilindi.

Fan va amaliyot o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik pedagogikaning umumiy masalalaridan biridir. Uni qay tarzda hal etish sohaning rivojlanishi, pedagogik innovatsiyalar sifati va ma'rifiy jabhani modernizatsiya qilish borasidagi yutuqlar, umuman, yaxlit ma'rifiy tizimning samaradorligiga bog'liq. Binobarin, davlatimiz rahbarining "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi

oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida bu boradagi vazifalar aniq-tiniq belgilangan. Jumladan, pedagog kadrlar tayyorlovchi OTMning kunduzgi ta'lim shaklida tahsil olayotgan 2-4-bosqich talabalari uchun haftalik o'quv mashg'ulotlari "4+2" tartibida, xususan, darslarning 4 kuni oliy ta'lim muassasasida, 2 kuni maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim muassasalarida amaliyot o'tash tartibida bo'lishi ko'rsatilgan. Bu esa talabalarning o'qish davridan boshlab ish jarayoniga moslashuvi, yetarli tajriba o'rtirishi uchun katta ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz Sirdaryo viloyatida o'tkazilgan uchrashuvlardan birida kelgusi o'quv yilidan bakalavr pedagog kadrlar tayyorlash to'liq davlat grantiga o'tkazilishi, pedagogika yo'nalishidagi OTMlar alohida yondashuv asosida rivojlantirilishi, magistraturada kvota 2 karra oshirilib, to'liq davlat hisobidan bo'lishini ta'kidladi.

"Kadrlar yetishmaydigan, ta'lim sifati og'ir maktablar oldindan tanlanib, ular uchun maqsadli davlat buyurtmasi joriy qilinadi. Bunda, buyurtma asosida o'qishni tamomlagan yoshlarga, ushbu maktablarda borib ishlashi uchun jozibador rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yamiz", dedi davlatimiz rahbari.

Bundan ko'zlangan maqsad 2030-yilga borib, bog'cha tarbiyachisi ham, maktab o'qituvchisi ham — barchasi oliy ma'lumotli bo'lishiga erishish ekani ta'kidlandi.

Mamlakatimizda nafaqat ma'naviy-ma'rifiy, balki boshqa sohalarda ham amalga oshirilayotgan islohotlar, yangilanishlar aynan o'qituvchi shaxsi, kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasiga bevosita bog'liq bo'layotir. Bu esa pedagogika yo'nalishida faoliyat yurituvchi professor-o'qituvchilarga yuksak sharaf keltirishi bilan birga, zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklaydi.



NUQTAI NAZAR

## O'ZBEK DIPLOMATIYA MAKTABI

## zamonaviy andoza va tajribalar asosida takomillashmoqda

**Abdusamat HAYDAROV,**  
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti  
huzuridagi Diplomatik akademiya direktori

Prezidentimizning "Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti faoliyatini tizimli isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga binoan, o'tgan yil noyabrda JIDU huzurida Diplomatik akademiya tashkil etilgan edi. Buning o'ziga yarasha qator asosli sabablari bor, albatta. Xususan, qarorda Diplomatik akademiya O'zbekiston Respublikasi milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda, diplomatik kadrlar, jumladan, yuqori bo'g'in diplomatlari (elchi va maslahatchilar)ni tizimli ravishda tayyorlash vazifasi yuklangan.

Mazkur topshiriq ijrosini ta'minlash maqsadida yaqinda akademiya yuqori bo'g'in diplomat kadrlarni tizimli asosda tayyorlash bo'yicha bir yillik kurs ochildi. Mashg'ulotlar o'tish uchun muassasaga yurtimizning xorijiy davlatlarda katta ilmiy-amaliy tajriba to'plagan yetakchi olimlari, eng yaxshi amaliyotchi va ekspertlar taklif etildi. Bu masalada Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti katta yordam bermoqda.

Kelgusida xorijlik nufuzli ekspert va mutaxassislarni ham faoliyatimizga

keng jalb etish nazarda tutilgan. Chet eldagi yetakchi muassasalar bilan hamkorlikda qo'shma dasturlar, ta'lim jarayoniga masofaviy o'qitishni keng tatbiq etish, xorijlik elchilar, Toshkentdagi xalqaro tashkilotlar rahbarlarini taklif qilish orqali bu maqsadni ro'yogga chiqarish ko'zda tutilgan.

Bir yillik kursning ilk tinglovchilari uchun hind hamkasblarimizning Hindiston tashqi siyosati va ikki tomonlama hamkorlik masalalari yoritilgan onlayn formatdagi taqdimoti o'tkazildi. Taqdimotni ilgari Hindiston-



ning Surinam, Qozog'iston, Finlyandiya va Estoniyadagi diplomatik missiyasi boshlig'i bo'lib xizmat qilgan, hozir Hindiston — Markaziy Osiyo jamg'armasi prezidenti, elchi Ashok Sharma o'tkazdi.

Taqdimotda Markaziy Osiyoning nufuzli mutaxassislaridan biri, mazkur jamg'arma direktori, doktor Ramakant Divedi ham ishtirok etdi. Shu o'rinda elchi Ashok Ragunatning ko'magini alohida qayd etish zarur. Bu shaxs oldin Hindiston tashqi ish-

lar vaziri o'rinbosari lavozimida ishlagan, akademiya bilan hamkorlik dasturini ishlab chiqishda faol ishtirok etgan. Hindistonning O'zbekistondagi elchisi janob Manish Prabxatning ham muntazam yordam berganini e'tirof etish dardkor. U diplomat kadrlarni qayta tayyorlash bo'yicha uch oylik kursimizda ma'ruzalar o'qidi.

Faoliyatimizni takomillashtirish va rivojlantirish uchun xorijiy mamlakatlardagi shunday akademiya bilan hamkorlik o'rnatish davr talabi. Xususan, xorijdagi diplomat kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha faoliyat yuritayotgan yetakchi ta'lim tashkilotlari bilan qo'shma loyihalarni yo'lga qo'yish akademiya faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biri. Shuni hisobga olib, o'tgan qisqa muddatda Koreya Respublikasi, Saudiya Arabistoni va Italiya diplomatik akademiyalari bilan hamkorlik memorandumlari imzolandi. Misr, Qatar, Isroil bilan hamkorlik memorandumlari loyihasi ishlab chiqilmoqda.

O'quv muassasamizda yuqori bo'g'in diplomat kadrlarni tayyorlash kurslaridan tashqari malaka oshirish va qayta tayyorlash bo'yicha boshqa kurslar ham mavjud. Diplomatik aka-



demiya turli vazirlik va idoralar talabiga ko'ra, qisqa muddatli kurslar tashkil etadi. Xususan, Tashqi ishlar vazirligi talabiga muvofiq, chet elga xizmat safariga ketayotgan va ma'muriy-texnik xodimlar hamda ularning oila a'zolari uchun qabul qilayotgan davlatning diplomatik protokoli va etiketining o'ziga xos xususiyatlari, u yerda yashash tartibi, mahalliy aholi bilan gaplashish qoidalari bilan tanishtirishga yo'naltirilgan kurslar tashkil etildi.

Davlatimiz rahbarining "Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti faoliyatini tizimli isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga binoan, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining, viloyatlar va Toshkent shahri, shuningdek, tuman (shahar) hokimlarining investitsiyalar va tashqi savdo masalalari bo'yicha o'rinbosarlari, tashqi siyosiy, iqtisodiy va xalqaro-huquqiy faoliyat sohasidagi mutaxassislarni hamda xodimlarni qisqa va uzoq muddatli o'quv kurs-

larida to'lov-shartnoma asosida, shu jumladan, masofaviy tarzda qayta tayyorlash va malakasini oshirish ko'zda tutilmoqda.

Mamlakatimiz tashqi siyosiy va iqtisodiy faoliyatini diplomatik kadrlar bilan ta'minlash, sohada ilmiy tadqiqotlar o'tkazish, shuningdek, diplomat kadrlarni saralash, tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish va zaxirasini yaratishga qaratilayotgan yuksak e'tibor tufayli Diplomatik akademiya qisqa muddatda salmoqli natijalarga erishdi.

Mana shunday e'tibor natijasida Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, shuningdek, Diplomatik akademiya yurtimizning jahon siyosati, xalqaro iqtisodiy aloqalar, xalqaro huquq masalalari bo'yicha yetakchi olimlari, amaliyotchilari va ekspertlari yig'ilgan. Bu esa, o'z navbatida, o'zbek diplomatiya maktabi tashkil etilishi tanlovi to'g'ri bo'lganini amalda ko'rsatmoqda.

# Ma'rifat

## BINOSIN TIKLAR EZGULIK G'ISHTI



### MUNOSABAT

**Bahodir JOVLIYEV,**  
**O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi katta o'qituvchisi,**  
**filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori**

Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Barqaror rivojlanish maqsadlari"ga uyg'un holda "O'zbekiston – 2030" taraqqiyot strategiyasi asosida olib borilayotgan islohotlar mamlakatimizdagi ilm-ma'rifat, bag'rikenglik, hamjihatlik va tinch-totuvlik g'oyalari asosiga qurilgan. Yaqinda bo'lib o'tgan BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqini e'tibor bilan tingladim. Nazarimda, davlatimiz rahbari zamonaviy dunyoda insoniyat oldidagi barcha muammo va tanazzullarning yechimi ulug' mutafakkir bobomiz Imom Buxoriyning "Ilmdan o'zga najot yo'q va bo'lmagay" degan hikmatlarida ekanini yana bir bor jahon bosh minbarida qayta uqtirgandek bo'ldi.



erkin almashish yo'lida yangi to'siqlar vujudga kelib, hatto iqlim o'zgarishlari, ochlik va tengsizlik qarshi kurash singari butun bashariyat taqdiriga daxldor masalalarda ham o'zaro hamfikrlik izdan chiqqan davrda o'tkazilayotgani global dunyoning nechog'liq xavfli nuqtaga kelganidan darak bermoqda.

Bu esa dunyo mamlakatlari, xalqlar va insonlar o'rtasida hamjihatlik va hamkorlik ruhini saqlash, umumiy manfaatlarini har qanday ziddiyatdan ustuvor qo'ygan holda, do'st-inoq bo'lib birlashish g'oyasi

har qachongidan ham dolzarb ekanini ko'rsatmoqda.

Bu borada O'zbekiston tomonidan mamlakatimizning tashqi siyosati, iqtisodiy, ta'lim-fan, ma'naviy-ma'rifiy, huquqiy erkinlik va diniy bag'rikenglik sohalaridagi islohotlari samarasi aniq misolul dalillar asosida isbotlangani dunyo hamjamiyatining yurtimizga e'tibori hamda hurmatini yana bir karra oshirgani shubhasiz.

Zotan, yurtimizda huquqiy, dunyoviy, demokratik va ijtimoiy davlatni barpo etish borasidagi qat'iy va uzoqni ko'zlab olib borilayotgan izchil siyosat asosida "Inson qadri va manfaatlari uchun" degan ezgu g'oya ustuvor bo'lib bormoqda. Shunga hamohang tarzda mamlakatimizda inson haq-huquqlarini ta'minlash orqali uning jamiyatda o'z munosib o'rnini topishiga zarur sharoit va imkoniyatlar yaratilmoqda.

Buni esa Prezident Shavkat Mirziyoyevning "Biz hamma uchun ochiq va sifatlil ta'limni kambag'allikka barham berish, xalq farovonligini oshirish va barqaror iqtisodiy o'sishga erishishning eng samarali omili, deb bilamiz", degan fikrlari mazmunidan anglab olish mumkin.

Aslida, majburiy va bolalar mehnatiga qat'iy iroda bilan barham berilishi, ya'ni millionlab hamyurtlarimiz qatorida o'qituvchi va shifokorlar, ayniqsa, maktab o'quvchilarining "paxta qulligi"dan ozod etilishi yuqoridagi sanaganimiz — adolat va ilm-ma'rifatning qadr topgani emasmi?!

Bu esa mamlakatimiz yuzini dunyoga yorug' ko'rsatib, yosh avlod ertangi kelayiga mustahkam poydevor qo'yishiga kuch-quvvat bag'ishlamoqda. Bolalarining sog'lom dunyoga kelishi, baxtili oila bag'rida, yorug' va shinam xonadonlarda kamol topishi uchun sog'liqni saqlash, ijtimoiy va iqtisodiy sohalarining butun e'tibori qaratilgan. Ta'lim-tarbiyaning bolaga ilk yoshidanoq zamonaviy talab va standartlar asosida berilishi uchun o'tgan olti yilda maktabgacha ta'limdagi qamrov 21 foizdan 70 foizga yetkazildi. Ushbu tafovutli ikki raqam ortida millionlab bolalarimiz baxtili kelajagi borligini farzandi quvonchi va ilk kichik yutug'idan sevingan har bir ota-ona chuqur his etishiga aminman.

Maktab ta'limi tizimidagi yangiliklar yanada qamrovli va zalvori ulug', desak, qiyosan xato bo'lmaydi. Zero, so'nggi yillarda yuzlab zamonaviy maktablar barpo etildi. Prezident maktablari, ijod maktablari hayotimizga kirib keldi, ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog'i kengaytirildi. Yangi uslub va mazmundagi darsliklar hamda o'quv qo'llanmalari yaratildi. O'qituvchi-murabbiylarning mehnat sharoitini yaxshilash, malakasini oshirish va albatta, munosib ish haqi to'lashga alohida e'tibor qaratilmoqda.



Yorug' orzular va ulug' maqsadlar bilan maktablarni bitirgan yoshlarning qariyb 90 foizidagi ezgu umidlar bir baxyada so'nishiga ko'p yillar ko'nikib yashaganimiz ham, afsuski, achchiq haqiqat. Bunday vaziyat ortidan mamlakatda ilm-fan, ta'lim-tarbiya, ma'naviyat va ma'rifat tanazzuli keskinlashib, jamiyatda iqtisodiy-ijtimoiy muammolar uchirishi tabiiy edi...

Ming shukrki, bugun ushbu og'ir vaziyat ham to'g'ri va adolatlil qarorlar asosida o'nglanmoqda. Jumladan, hozirda yoshlarimizning oliy ta'limga qamrovi 9 foizdan 38 foizga yetdi. 2030-yilga qadar har bir bolaning bog'chaga qatnashi, maktabni bitira-

yo'tgan har ikki o'quvchining biri oliyog'ha o'qishi uchun imkoniyat yaratilishi borasidagi mujdalar har bir yurtdoshimiz qatorida mening qalbmni ham faxrga to'ldiradi.

Darhaqiqat, bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiy rivojlanish markaziga, Sharq va G'arbni, Shimol va Janubni bog'laydigan transport-kommunikatsiya ko'prigiga aylanib, unga qiziqish va e'tibor tobora ortib bormoqda. Davlatimizning yaxshi qo'shnichilik, barqarorlik, o'zaro hamkorlik va rivojlanish yo'lidagi siyosati katta ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa

yo'qolishi va atrof-muhit ifloslanishining oldini olish bo'yicha mushtarak maqsadlarni birlashtirishdek ezgu fikrlar mujassam bo'ldi. Ayniqsa, Orol dengizi fojiasi oqibatlarini bartaraf etish borasida O'zbekiston o'z imkoniyatlarini darajasida harakat qilayotgani ta'kidlangan holda, bu sa'y-harakatlarni davom ettirish uchun xalqaro hamjamiyatning qo'llab-quvvatlashi juda muhimligi ham aytib o'tildi.

Shuningdek, ekstremizm balosi tarqalishiga, yoshlarning radikalashuviga yo'l qo'ymaslik uchun birgalikda kurashish borasida yurtimiz tajribasi o'rtoqlashilib, yanada samarali faoliyat yuritishda hamkor, hamfikrlikning dolzarbligi ko'rsatib o'tildi. Ayniqsa, so'nggi paytlarda ayrim mamlakatlarda ko'zga tashlanayotgan diniy toqatsizlik, islomofobiya holatlariga aslo yo'l qo'yib bo'lmagligi oliy minbardan yana bir bor dadil qayd etildi. Jahon miqyosida dinlarning bag'rikenglik va hamjihatlik g'oyalarini keng targ'ib etish maqsadida O'zbekistonda UNESCO shafeligida Dinlarning mulohot va bag'rikenglik xalqaro markazini tashkil etish taklifi esa barchaning e'tiborini tortgani shubhasiz.

Zotan, ma'ruzada ta'kidlanganidek, "...Diyorimiz jahon ilm-fani rivojiga beqiyos hissa qo'shgan, islomni ilm-ma'rifat va tinchlik dini sifatida namoyon etgan Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Imom Buxoriy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy singari ulug' allo-ma va mutafakkirlar vatani ekanini bilan haqli ravishda faxrlanamiz. Shunday buyuk olimlarning boy merosini o'rganish, islomning asl insonparvarlik mohiyatini chuqur ochib berish maqsadida 2024-yil O'zbekistonda "Islom — tinchlik va ezgulik dini" mavzusida xalqaro konferensiya o'tkazish tashabbusini ilgari suramiz".

Albatta, ushbu tashabbuslarda ham ilm-ma'rifat va tinchlik-totuvlik bir o'zakda ifodalangani yurtimizda, tom ma'noda, Uchinchi Rennessans poydevori mustahkamlanayotganini dunyoga yana bir bor ovoza qildi. Shu bilan birga, davlatimiz rahbarining bu dadil qadamlari ayni davr tarixini yaratayotgan ma'rifat binosiga qo'yilayotgan ezgulik g'ishtlaridir, desak adashmagan bo'lamiz.



### MULOHAZA

# MIGRATSIYANING MA'NAVY QIYOFASI

## QIYNALIB TOPILGAN PUL NIMAGA SARFLANYAPTI?

**Shahlo AHROROVA,**  
**Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi**  
**Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti katta ilmiy xodimi**

Falanchi Rossiya, Turkiya yo Yevropaga ketibdi, degan xabarlar bugun hech kimni hayratlantirmay qo'ydi. Ha, ishlagani ketibdi-da, deb qo'ya qoladigan bo'ldik. Falonchi o'g'li yo erining har oyda jo'natayotgan puliga uy qurdiryapti yoki ta'mirlatyapti, to'yga hozirlik ko'ryapti, degan xabarlar ham kundalik gap-so'zga aylandi. Nima bo'пти, mehnat qilib, halol pul topyapti, degan gap ko'nglimizni xotirjam qilganday bo'ladi. Gohida ular ishlayotgan mamlakatda migrantlarga salbiy munosabat, haq-huquqlar poymol etilayotgani haqidagi mish-mishlar dilimizni xira qiladi. Bu migratsiya masalasi dunyo bo'ylab juda jiddiy siyosiy-ijtimoiy masala ekanini eslatib turadi.



Xo'sh, migratsiya nima? Nima uchun u bugun barcha mamlakatlarni tashvishga soladigan masalaga aylandi? Bu ijobiy hodisami yoki salbiy?

Migratsiya "ko'chib o'tish" ma'nosini anglatib, nafaqat aholining ko'chishi, balki hayvonlar va qushlarning ham yashash muhiti taqozosi bilan bir geografik makondan boshqasiga o'tishi (hayvonlar migratsiyasi), kimyoviy elementlarning Yer qobig'i yoki yuzasida o'z joyini o'zgartirishi (elementlar migratsiyasi), energiyaning bir zarradan boshqa zarraga o'tishi (energiya migratsiyasi), kapitalning bir mamlakatdan boshqasiga chiqib turishiga nisbatan ham qo'llanadi.

Uning turlari juda ko'p. Mamlakat ichida bir hududdan ikkinchisiga ko'chish ichki migratsiya deyilsa, mamlakat tashqarisiga chiqib ketish tashqi migratsiya deyiladi. Shuningdek, huquqiy asosiga ko'ra legal va nolegal, vaqt mezonlariga ko'ra doimiy

va vaqtincha migratsiya mavjud. Vaqtincha migratsiyaning o'zi ham mavsumiy (masalan, paxta mavsumida ko'chib kelib ishlash yoki chetga mavsumiy ish uchun chiqish), tebranuvchan, ya'ni tez-tez o'zgarib turadigan hamda tasodifiy (kutilmaganda ko'chish) migratsiyadan iborat.

Bizni tashvishlantirayotgan jihat esa tashqi migratsiya, ya'ni yurtdoshlarimizning Vatandan chetga vaqtincha yoki doimiy ko'chib ketayotgani va holatning ma'naviy qiyofasi masalasi. Bu kabi migratsiya sabablari aslida xilma-xil, ularni o'rganish esa jamiyat barqarorligini ta'minlash nuqtayi nazaridan juda muhim.

Xo'sh, odamlar nega chetga chiqadi? To'g'ri, birinchi sababi — ishlab pul topish uchun. Bugun dunyo bozorida iqtisodiy integratsiya kuchayib bormoqda. Shuningdek, rivojlanmagan, rivojlanayotgan va rivojlangan davlatlar o'rtasida nisbat o'Ichovi oshib borishi

qoloq davlatlardan taraqqiy etgan davlatlarga mehnat migrantlari tobora ko'proq intilishiga zamin yaratmoqda. Bozori iqtisodiyoti raqobat va ishsizlikni hamisha o'zi bilan yetaklab yuradi. Mustaqillikdan keyin jamiyatimiz tizimidagi beayov o'zgarish va uzilishlardan so'ng mustaqil tarzda oyoqqa tura boshlagan O'zbekiston ham iqtisodiy tanazzul sinovlaridan bebahra qolmaydi. Turgan gapki, bozor iqtisodiyoti talablariga tayyor bo'lmagan, daromad manbaidan mosuvo ishsizlar sinfi yuzaga keldi. Mana shu qatlam vakillari ish izlab, daromad topish uchun nisbatan rivojlangan va mehnat bozorida ishchi kuchiga talab yuqori mamlakatlarga boradi. Ayrimlari yakka o'zi, ayrimlari esa oilasi bilan ketadi.

Lekin dunyoda migratsiyaning boshqa sabablari ham bor. O'z mamlakatidagi siyosiy beqarorlik, urush va terrorchilik harakatlari tufayli odamlar Vatanini tark etishga majbur

bo'ladi, tinch boshpana izlaydi. Shu ma'noda, qochqinlar oqimi tobora ortib borayotgani, turli noqonuniy yo'llar bilan bo'lsa-da, Yevropa mamlakatlariga kirib borishga urinayotgani va bu yo'lda ko'plab qurbonlik berilayotgani Yevropani xiyla tashvishga solib qo'ygan. Buni hammaiz omamaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlardagi turli xabarlar orqali kuzatib turibmiz. Mana shu kabilarni ko'rib, ko'pincha Vatanimizdagi tinchlik va barqarorlik uchun shukrona ham keltirib qo'yamiz.

Ba'zan qandaydir oqimlarga qo'shilib yoki ular ortidan ergashib, qaysidir siyosiy maqsadlarni ko'zlagan holda chetga chiqishlar ham kuzatiladi. Migratsiyaning bu turi har qanday jamiyat uchun xavfli. Bunday maqsadlar ortida, asosan, siyosiy to'ntarishlar, terrorchilik harakatlari, radikalizm kabi ko'ngilsizliklarni ko'rish mumkin. Yoki ishlash uchun chiqib ketib, huquqiy bilimdagisayozlik, g'oyaviy bo'shliq tufayli borgan mamlakatida turli buzg'unchi mafkuralar tuzog'iga tushib qolayotgan va radikal oqimlar ortidan ergashayotganlarni ham ko'ramiz.

Bundan tashqari, migratsiya sabablari shunchaki turizm va sayohat, ta'lim olish yoki salomatlikni tiklash masalalari bo'lishi mumkin. Biroq bugun chetga chiqayotgan yurtdoshlarimizning ketishiga asosiy sabab ishsizlikdir. Keling, shu o'rinda raqamlarga murojaat qilamiz.

Bandlik va mehnat vazirligi ma'lumotlari ko'rsatishicha, O'zbekistonda 2022-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra ishsizlik darajasi 9,6 foizni tashkil etib, avvalgi yilning shu davriga nisbatan 0,9 foiz kamaygan bo'lsa, 2021-yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan 0,2 foiz ortgan. Bu ko'rsatkichlar ortida millionlab odam taqdiri turganini ham yaxshi bilamiz. Mana shu qatlam vakillarining huquqiy vakolatlarini ta'minlash, ularga

ko'maklashish orqali mamlakatimizda ishsizlikni kamaytirish uchun Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi chet mamlakatlar bilan muloqot o'rnatib, yurtdoshlarimizni xavfsiz, qonuniy ish o'rinlariga yo'naltirish choralarini ko'rib keladi. Ma'lumotlarga qaraganda, o'tgan yilning olti oyida Serbiyaga 410 nafar, Germaniyaga 31 nafar yurtdoshimiz huquqiy shartnoma asosida yuborilib, ishga joylashtirilgan. Ayni vaqtda Rossiyada 2 milliondan ortiq hamyurtimiz mehnat qilayotgani aytiladi.

Ular orasida og'ir sharoitda mehnat qilayotganlar ham bor. Juda qiynalib, sog'lig'ini boy berib pul topadiganlar ham kam emas. Xo'sh, keyin-chi? Kelib, bu pulni nimaga xarj qilishadi? Albatta, to'ygali Elik mehmon bilan ham nishonlash mumkin bo'lgan baxtili kunlarimizni daddabaga aylantirib, o'zimizni ko'rsatamiz. Eng yomoni, mana shu ortiqcha rasm-rusum, bizni chetga chiqib ishlashga majbur qilayotgan daddabani "elchilik, qadriyat" deb, noto'g'ri talqin qilamiz. Hech qachon "Kel, jonimni, sog'lig'imni xatarga qo'ymasdan, shu to'yni kichikroq, kamxarj qilib o'tkazay. Qolgan pulni bolalarimning o'qishiga, kelajagini ta'minlashga sarflay", demaymiz. Bir-ikki yil qiynalib turganimizni bir kunda sarflaymiz-da, yana xopjanimizni yelkaga ilib, chet elga ketamiz. Aslida, migratsiya deganining ma'naviy og'riqli tomoni mana shu!

Xo'sh, migrantlarga oson deb o'ylaysizmi? Osonmas, buni yaxshi bilasiz. Nolegal ishlayotganlarning mehnat huquqi kafolatlanmagan. Chunki birinchi galda, ular yetarlicha huquqiy bilimga ega emas. Ikkinchidan, nima bo'lganda ham mahalliy aholi uchun ular muhojir. Shu bois, migrantni sig'dirmasliklari, unga bosim o'tkazishlari mumkin. Demak, ichidan zil ketsa ham,

ma'naviy xo'rlikka chidashga majbur. Chunki bir-ikki yildan so'ng yana Vatanga qaytib, topganini "to'y" degan yuhoga yedirib, havoga sochib kelishi kerak! Nazarimda, to'y va boshqa marosimlarni (jumladan, hozir hojilarni kutib olish bilan bog'liq turli-tuman, ma'nili-ma'nisiz tadbirlarni) keskin qisqartirsak, migratsiya oqimi ham keskin pasayardi.

Ko'pincha hamyurtlarimiz chet elda halolligi, mehnatkashligi bilan hurmat topgani haqidagi xabarlarini eshitganimizda ko'nglimiz xotirjam tortadi va "haloli bo'lsin", deb qo'yamiz. Biroq ko'ngilni xira qiladigan holatlar haqidagi xabarini eshitganimizda ichimizdan zil ketamiz. Bag'rimiz qonaganday bo'ladi. Chunki har bir inson o'zi yurti chegarasidan tashqariga oyoq bosdimi, mamlakatining yuziga aylanadi. Agar u yomon bo'lsa, musofir yurtdagilar nazdida, migrantning mamlakatidagilar ham yomon. Basharti u halol va mard bo'lsa, xorijliklar uchun barcha o'zbek mard va tanti bo'lib ko'rinadi. Shu oddiy haqiqatni bilmaslik huquqiy savodsizlikdan o'n karra og'ir, aslida! Chet elga chiqib, axloqsizlik, odam savdosi, giyohvandlik yoki terrorchilik harakatlari sodir etayotgan juda kamchilik ko'plab iboli opa-singillari, mard va oiljanob aka-ukalari yuziga ketmaydigan dog' chaplayotganini bilmayotgani yoki bila turib shu ishni qilayotgani o'za nodonlik va ma'naviy tubanlikdir. Bu ham migratsiyaning eng og'riqli nuqtalaridan.

Rivojlangan davlatga aylanmaguniga qadar har qanday mamlakat uchun tashqi migratsiya — tabiiy jarayon. Chunki unda ish o'rinlariga nisbatan ishchi kuchi ko'proq. Umlarning hammasini munosib ish bilan ta'minlashga imkon yetarli bo'lmaydi. Odamlar esa pul topishi, oilasini boqishi kerak. Buning uchun, albatta, ishlashi lozim, hatto musofir yurtda bo'lsa ham. Bu xato yoki fojia emas, tabiiy holat. Faqat migrant nojo'ya xatti-harakati bilan yurtdoshlarining yuziga oyoq bosasi, millati sha'nini topatsa, mana shu xato va ma'naviy fojia bo'ladi. Shuning uchun migratsiyaning nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy, balki ma'naviy-mafkuraviy jihatlar haqida jiddiy o'ylab ko'rish, kerak bo'lsa, ilmiy tahlil qilish bugun jamiyat oldida turgan eng dolzarb masalalardan biridir.

“Yangi O'zbekiston” va “Правда Востока” gazetalar tahririyati” DUK

MUASSIS:  
**O'zbekiston Respublikasi**  
**Vazirlar Mahkamasi**

Qabulkona: (71) 233-56-33

Bosh muharrir:

**Salim DONIYOROV**

Devonxona va e'lonlar: (71) 233-70-98

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlil chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.  
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va omamaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.  
**Nashr indeksi — 236. Buyurtma 1046.**  
43312 nusxada bosildi.

**Hajmi — 3 ta boq.** Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi A2.** Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Abdurauf Qorjovov  
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz: 100029,  
Toshkent shahri,  
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy

Topshirildi — 00:00